

10-10-2019

LEXICAL PROPERTIES OF ANTHROPNYMS IN TEMURYZ

Shaxodat Rahmatullayeva

Teacher of the Department of Elementary Education at Karshi State University

Nilufar Muminova

Teacher of the Department of Elementary Education at Karshi State University

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Rahmatullayeva, Shaxodat and Muminova, Nilufar (2019) "LEXICAL PROPERTIES OF ANTHROPNYMS IN TEMURYZ," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 1 : Iss. 9 , Article 31.

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss9/31>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

LEXICAL PROPERTIES OF ANTHROPNYMS IN TEMURYZ

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

TEMURIYZODA ANTROPONIMLARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

Shaxodat Rahmatullayeva, Nilufar muminova

Qarshi davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotasiya: Maqolada o'zbek tilshunosligida temuriylar davri antroponimiyasi, xususan, temuriylar sulolasi, Amir Temur va uning avlodu ajdodlari, davrdoshlari ismlari-ning majmuasi, ularning ism qo'yish odatlari, bunday ismlarning ma'nolari hamda ularning leksik qatlamlari, nomlanish tamoyillarini lingvistik jihatdan tadqiq etishligi xususida so'z boradi.

Shu bilan bir qatorda temuriyzoda antroponimlarida nafaqat orzu-istak ismlar, balki bag'ishlov ismlar ham uchraydi.

Suningdek, temuriyzoda ayollar ismlar tarkibidagi nom yasovchi antropoindikatorlar, ya'ni -aro, -begim, -bonu, -og'o, -xonim, -xotun, -beka, -baxt -turkon leksemalarining ismlarga qo'shilishi asosida nomlanishiga ko'ra guruhlanishi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kishi atoqli otlari, nomshunoslik, til, leksika, semantika, bag'ishlov va orzu-istak ismlari, antropoindikatorlar.

Ma'limki, antroponimika (ismshunoslik) –nomshunoslikning kishi atoqli otlari (antroponimlar)ning paydo bo'lishi, taraqqiyoti, ism qo'yishdagi motivlat, ularning vazifaviy xususiyatlarini o'rganuvchi bo'lim hisoblanadi. Antroponimiya esa nomshunoslikning kishi atoqli otlari (antro-odam, kishi, shaxs; onoma-ism, nom, ya'ni kishining oti) biror tilda mavjud bo'lgan kishi atoqli otlari majmuidir.

Antroponimlar genezisiga ko'ra tilning eng qadimiy, yashovchan hamda turg'un qatlamlaridan biridir. Ismlar o'tmishda ko'p asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bizga tarixiy-lisoniy boylik sifatida etib kelgan ulkan madaniy va ma'naviy qimmatga molik bo'lgan lig'aviy qatlamdir. Bolaga ism tanlash va unga nom qo'yish tamoyillarida o'zbek xalqi o'tmishining tarixi, orzu va intilishlari, ijtimoiy va diniy-falsafiy qarashlari, urf-odatlari, e'tiqodi hamda ishonchi o'z ifodasini topgan. Mana shu ma'noda ismlar tilning boshqa bir qator lug'aviy qatlamlari kabi o'zbek xalqi ma'naviy qadriyatining tarkibiy qismidir. Mana shu jihatdan qaralganda, o'zbek nomshunosligida Temuriyzoda antroponimlarining leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish o'zbek tili antroponimiya-sining dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida temuriylar davri antroponimlari manbalarda maxsus o'rganilmagan. E.Begmatovning ta'kidlashicha, o'zbek antroponimlarining bir qator nazariy va amaliy muammolari o'zining ilmiy asosi va teran tadqiqini kutmoqda. Mana shunday muammolar sirasiga o'zbek tarixiy antroponimiyasi, tarixiy yozma obidalar tilidagi antroponimlarni o'rganish kiradi [2:5].

O'zbek antroponimlarining lisoniy tadqiqiga oid ilmiy ishlar monografik tarzda E.Begmatov, G.Sattorov, S.Raximov, N.Husanovlar tomonidan amalga oshirilgan.

O'zbek tili tarixiy antroponimiyasi, qolaversa, ba'zi temuriylar ismlari bo'yicha yagona va salmoqli tadqiqot N.Husanov tomonidan bajarilgan. U o'zining "O'zbek antroponimlari tarixi" nomli monografiyasida XY asr yozma manbalarida temuriylarning ismlari ko'p va takror-takror uchraganligi sababli, badiiy adabiyotda ismlari aks etgan temuriy ismlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Temuriylar ismlarining 21 tasini qaysi tilga mansubligi, ismlarning ma'nolari, qo'llanilishi, tarixiy va badiiy manbalarda qayd etilgan

ismlar haqida fikr yuritgan. Olim Temur, Abdulatif, Boyqaro, Boysung'ur, Mironshoh, Ulug'bek va boshqa ismlarga lisoniy-tarixiy jihatdan izohlar bergan. N.Husanovning ta'kidlashicha, Amir Temur haqida yuzlab asarlar yaratilgan bo'lsa-da, uning va avlodlarining ismlari maxsus o'rganilmagan. Bu yo'nalishda ko'plab tadqiqotlar olib borish zarurligi to'g'risida alohida ta'kidlab o'tgan [3;76,82].

Mana shu jihatdan qaraganda, bugungi mustaqillik davri o'zbek tilshunosligida temuriylar davri antroponimlari, xususan, temuriylar sulolasi, Amir Temur va uning avlodu ajdodlari, davrdoshlari ismlarining majmuasi, ularning ism qo'yish odatlari, bunday ismlarning ma'nolari hamda ularning leksik qatlamlari, nomlanish tamoyillarini lingvistik jihatdan tadqiq etish dolzarblik kasb etadi.

Turkiy xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqining tarixida Amir Temur davrdoshlari, temuriy shahzodalar va temuriyzoda malikalarining o'z o'rni bor. Temuriyzoda podshohlar va malikalar ham iste'dodli, jasoratli sarkarda, uzoqni ko'ra biladigan siyosatdon, suxandon, aqlli va zakovatli, ajoyib olima-yu olimlar, jasur va mag'rur hamda dilbar shoiru shoirlar bo'lishgan. Temuriylar davridagi erkak va ayollar tariximizning oltin zarvaraqlarida o'z nomlari, o'zlarining mard va jasurligi, aql va zakovati bilan o'chmas iz qoldirganlar. Amir Temur esa turkiy xalqlar tarixida, qolaversa, butun dunyo xalqlari tarixida alohida mavqega ega. Shuning uchun ham butun dunyo xalqlari uni hurmar bilan e'tirof etadilar.

Mana shunday e'tirof tufayli Amir Temurning adolat uchun kurashdagi mislsiz xizmatlari haqida, temuriylar davri to'g'risida juda ko'plab asarlar yaratilgan. Bu asarlarda eng avvalo, ularning ismi, otasining ismi, qavmu qarindoshlarining ismi keltiriladiki, bu ismlar vositasida biz temuriylar davri xususida ko'plab ma'lumotlarni bilishimiz mumkin.

Taraqqiy etgan har bir madaniyatli xalqning o'z tili, adabiyoti, ma'na-viyati, madaniyati, tarixi va urf-odatlari bo'ladi. Ismlarda bularning barchasi va xalqning milliyligi aks etadi. Ism tanlanar ekan, u, albatta, qandaydir motivga va sababga ega bo'ladi. Bolani nomlash shunchaki oddiy jarayon emas. Bu jarayonda xalqning o'zligi, milliyligi hamda tarixi aks etadi. Tanlanayotgan ism qanday bo'lishidan qat'iy nazar u o'zida ota-onaning orzu-istaklarini mujassam etadi.

Temuriylarga oid antroponimlarda ham turli motivga va sababga ega bo'lgan ismlarni uchratish mumkin. Shular qatori bag'ishlov va orzu-istak ismlar ham mavjuddir. Bunday orzu-istaklarning asosiylari quyidagilar:

- bolaning turli balo-qazolardan yiroq va sog'-salomat ulg'ayishi;
- bolaning yashab ketishini istash;
- bolaga uzoq va baxtli umr tilash;
- bolaning bilimdon, aql-zakovatli bo'lishini istash;
- mehribon, yoqimtoy, dilkash inson bo'lishini istash;
- mard, jasur, shijoatli, baquvvat bo'lib ulg'ayishini istash;
- bolaning irodali, chidamli, jismonan baquvvat bo'lib ulg'ayishini xohlash;
- bolaning omadli va baxtli inson bo'lishini tilash;
- bolaning shodon, quvnoq bo'lib ulg'ayishini tilash kabi orzu-umidlar o'z aksini topadi[1.176].

Ayniqsa, temuriyzodalarda yangi tugʻilgan chaqaloqqa istaklar, tilaklar k oʻp qirrali va xilma-xildir. Temuriylar ism tanlashda jiddiy yondashishgan. Bu ismlarda ota-onaning barcha ezgu tilaklari aks etadi. Shu istaklarning ijobat boʻlishini umid qilishadi. Orzu-istaklarning birortasidan voz kechib boʻlmaydi. Ammo bu istaklar orasida farzandning sogʻ-salomat oʻsishi, balo-qazolardan, aynan bevaqt oʻlimdan yiroq boʻlishini xohlash orzusi birinchi oʻrinda turadi. Jumladan, Turmush ogʻo, Toʻlin ogʻo, Tursun Sulton begim, Tugalxonim, Borboʻl Mirzo, Buzanjir Mirzo, Xolid Mirzo, Abulboqi Mirzo, Sulton begim (umri uzoq boʻlsin), Sulton Najot begim (uzoq umr koʻrsin), Hadicha Sulton begim (umri uzoq boʻlsin, yashab ketsin), Ruhparvar (hayot baxsh, jon baxsh), Poyanda Sultonbegim (turgʻun, mahkam yashovchi) kabi.

Baxtli va uzoq umr tilab qoʻyilgan ismlar: Sevin beka, Sevinch Qutlugʻ ogʻo begim, Oqbegim, Qutlugʻbegim, Qutlugʻ Sultonbegim, Baxtmulk ogʻo, Saodat Baxtbegim, Oysha Sultonbegim, Farruh Mirzo, Muzaffar Mirzo.

Temuriylarning aql-zakovatli boʻlishini istab qoʻyilgan nomlar: Boysunqur Mirzo, Oʻgʻi begi.

Mehribon, dilkash, yoqimtoy inson orzusi Mihib Sulton begim, Latifa Sulton Ogʻacha, Mehrlik begim, Husayn Mirzo, Hasan Mirzo kabi ismlarda aks etgan.

Mardlik, jasurlik, shijoat, baquvvatlilik xislatlari jo boʻlgan ismlar sirasiga Haydar Mirzo, Komron Mirzo, Faridun Mirzo, Jahongir Mirzo, Sanjar Mirzo, Usmon Mirzo, Boyqaro Mirzo, Qorachar Mirzo singari ismlar kiradi.

Temuriylarning omadli va baxtli inson boʻlishini tilab qoʻyilgan ismlar: Qutlugʻ Nigorxonim, Sad Vaqqos Mirzo, Davlat Baxt Saodat, Zuhrabegim kabilar.

Bolaning shodon, quvnoq boʻlib ulgʻayishi kabi orzularni oʻzida mujassam etgan nomlar: Dilshod ogʻo begim, Shodmulkbegim.

Temuriylar malikalarga alohida masʼuliyat bilan ism tanlashgan. Malikalar ismlarida odoblilik, nafislik va muloyimlik, jasurlik, ochiq koʻngillik hamda dikashlik, goʻzallik va maftunkorlik, nozik did bilan farosatlilik aks ettirilgan. Malikalarga munosib chiroyli, mazmunli ismlar berilgan. Bu udum temuriyzoda malikalar ismida yaqqol koʻrinadi: Qutlugʻbegim, Sevinbeka, Sevinch Qutlugʻ ogʻo begim, Oybegim, Qutlugʻsultonbegim, Opoqbegim, Oqobegim, Oʻgʻibegi, Beka Sulton, Choʻlponmulk ogʻo, Qutlugʻnigorxonim. Temuriylar qizlariga ism tanlashda ularning koʻrinishi, rang-u roʻyiga ham diqqat qilishgan. Bu nomlarda malikalarning yuz koʻrinishi, koʻzining rangi ifoda etilgan: Opoqbegim, Qorakoʻzbekim, Oqbegim kabi. Temuriy malikalar ismlarida oʻtmish ajdodlarining nomi berilganligi boʻlib, malikalarni asl ismi bilan emas qarindoshlikni anglatadigan soʻzlar bilan ham atashgan: Ogʻobegi, Ogʻo Tugʻon shoh kabi. Bolaning tanasida biror belgi boʻlsa, unga shu belgi asosida ism qoʻyishgan: Menglibek ogʻoyi, Minglibiy ogʻacha singari. Temuriyzoda malikalarining ismlarida temuriylar urf-odatleri, orzu-istaklari, oʻy-xayollari jo boʻlgan.

Shu bilan bir qatorda bolaning irodali, chidamli, jismonan baquvvat boʻlib ulgʻayishini xohlash temuriylarning Tagʻoy Turkon ogʻo, Muhammad Maʼsum Mirzo, Amir Temur kabi ismlarida kuzatiladi. Orzu-istaklar xilma-xil boʻlishi bilan birga barchasida yagona maqsad– bolaning sogʻlom va baquvvat oʻsishi nazarda tutilgan. Orzu-istak ismlari mana shunday tushunchalarni oʻz ichiga oladi.

Temuriyzoda antroponimlarida nafaqat orzu-istak ismlar, balki bag'ishlov ismlar ham uchraydi. Bag'ishlov – biror narsani, uning yuzaga kelishi, paydo bo'lishi, yashashini, taqdirini biror ilohiy kuchga, narsaga, biror obyektga yoki mavhum, hayotiy narsalarga bog'lash demakdir. Bu juda qadimiy ishonchdir. Bunga ko'ra chaqaloqning tug'ilishi, farzandli bo'lish biror ilohiy, muqaddas kuchning irodasi, ko'magi, ehsoni deb hisoblanadi va chaqaloqqa o'sha taxmin qilingan, e'tiqod qilinayotgan narsa, shaxs, tasavvurning nomi ism sifatida beriladi. Farzandli bo'lishni biror narsa va hodisaga bog'lash asosida kishilar yashagan davrdagi siyosiy-ijtimoiy holat, turli e'tiqod va tasavvurlar, qadimiy etnik ishonchlar muhim o'rin tutadi. Bag'ishlov (memorativ) ismlar uzoq davrlar mahsuli bo'lib odamlarning turli predmet va narsalarga sig'inishi asosida vujudga keladi. Bunday ismlarga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin: Gavharshod begim, Boysunqur Mirzo, Cho'lpon Mulk og'o, Munavvar Sulton begim, Opoq begim kabi.

Temuriylarda uchraydigan ismlar o'ziga xos ma'no qirralariga ega. Aksariyat temuriyzoda ismlarining nomlanish asosida islom dini e'tiqodlari, urf-odatlar o'z aksini topgan. Islom dinida insonlar ismining ma'noli va ko'rkam bo'lishi ahamiyatlidir. Temuriyzoda antroponimlarida Alloh ismlari, payg'ambarlarning ismlari, xalifa choriyorlar nomlaridan yasalgan ismlarni kuzatishimiz mumkin. Bunday ismlar mutlaqo yangicha yo'sinda yaratilgan. Masalan: Muhammad Bakr Mirzo, Sultonali Mirzo, Muhammad Nosir Mirzo, Muhammad Qosim Mirzo, Abdulboqi Mirzo kabi. Bu ismlarda yoki bu ismlar ikki manba payg'ambarlarimiz va xalifalarning ismlari qo'yilishi natijasida yangi nomlar kelib chiqqan. Alloh taolo ismlari, Payg'ambarlarimiz (sav), xalifalar nomlaridan tashqari ularning farzandlari, oila a'zolari ismlari mo'tabar hisoblanib e'zozlangan hamda temuriylar uchun ism sifatida qo'llangan. Masalan, Husayn Mirzo ismini olaylik, Husayn xalifa Alining o'g'li, Muhammad (sav) nabirasidir. Mehribon, saxiy, chiroyli kabi ma'nolarni anglatadi. Muhammad Qosim Mirzo esa Qosim Muhammad (sav) o'g'lining ismi bo'lgan.

Ismlardagi Mirzo, begim, og'o so'zlari indikatorlar hisoblanib, Mirzo, ya'ni "Amirzoda" qisqartma shakli bo'lib, Amir avlodiga mansub bola ma'nosida Amir Temurning o'g'illari va undan keyingi avlodi shunday atalgan. Begim–podshoning xotini yoki qiziga nisbatan qo'llanilib, hurmat ma'nosini ifodalovchi so'zdir. Temuriylarga oid indikatorlarning barchasi unvonni ifodalaydi. Ism xalq ijodi, uning orzu-istaklari mahsulidir. Mana shu tufayli temuriyzodalar o'ziga xos turli-tuman ismlar o'ylab topishgan.

Mana shu nuqtai nazardan qaralganda temuriyzoda ayollar ismlarining til lug'at tizimidagi o'rnini, ismlarning til, nutq, yoxud lison-nutq oppozitsiyalari, ularning tizimiy munosabatlari antroponimik qurshovda "qiz", "ayol", "odam" leksemalarining o'zaro paradigmatic (o'xshashlik), iyerarxik (pog'onali), sintagmatik (qo'shnichilik) munosabatlarini o'rganish ham katta ahamiyatga egadir.

Ismlar tarkibidagi–aro, -begim, -bonu, -og'o, -xotun, -xonim, -beka, -baxt begim, -turkon, -niso kabi nom yasovchi antropoidikatorlarning lisoniy tizimidagi imkoniyatlarni ko'rsatish ham antroponimlarning umumiy va xususiy belgilari bilan bir leksik sistemaga ayollar ismlari guruhiga birlashishini tadqiq etish zarurdir. Shundagina temuriyzoda ayollar ismlarining lisoniy-nutqiy ma'nolari, eng muhimi ayollar ismlarining nomlanish

tamoyillari, nomlanishiga asos bo'luvchi nolisoniy hodisalarni tadqiq etish mumkin[3,140].

Temuriyzoda ayollar ismlar tarkibidagi nom yasovchi antropoindikatorlar, ya'ni – aro, -begim, -bonu, -og'o, -xonim, -xotun, -beka, -baxt begim, -turkon leksemalarining ismlarga qo'shilishi asosida nomlanishiga ko'ra ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Aro begim antropoindikator asosida: Anjuman aro begim,
2. Begim antropoindikator asosida: Xonzodabegim, Badrinisobegim, Gavharshodbegim, Oybegim, Oqbegim, Qorako'zbekim, Oqasultonbegim, Sultonbegim, Xadichasultonbegim, Bekabegim, Zaynabsultonbegim
3. Bonu antropoindikator asosida: Arjumandbonu.
4. Og'o antropoindikator asosida: Dilshod og'o, O'ljoy Turkon og'o, Qutlug' Turkon og'o, Tuman og'o, Turmish (Nurmushk) og'o.
og'o,, To'lun og'o, Tog'ay Turkon og'o, Baxtmulk og'o, Sulton og'o, Bekmulk og'o.
5. Xotun//xotin antropoindikator asosida: Tegina xotin, Tog'oy Turkon xotun.
6. Beka antropoindikator asosida: Sevinchbeka, Shirinbeka, Xadichabeka
7. Xonim antropoindikator asosida; Saroymulkxonim (Bibixonim yoki Begimxonim), Tukalxonim, Qutlug'nigorxonim, Xonzodaxonim, Mehrnigorxonim
8. Sulton antropoindikator asosida: Habiba Sulton, Maryam Sulton.
9. Niso antropoindikator asosida: Zebuniso.

Yuqorida qayd etilgan temuriyzoda xotinlarning qizlik ismlari keyinchalik ular temuriyzodalarga tekkanidan keyin Amir Temur saroyidagi mavqei, mansabi, obro'si va haramdagi o'rniga ko'ra ularning ismiga yangi antropoindikatorlar qo'shilgan hamda bu antropoindikatorlar ularning saroy muhitidagi mavqeini anglatgan.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylarning ismlarida xalqona, sharqona udum va fazilatlar saqlangan. Har bir ismning asoschisi bu, albatta, xalqdir. Zero, ismlarda o'zligimiz, milliyligimiz aks etadi. Nomshunos olim E.Begmatov ta'biri bilan aytganda, kishi ismlari - bu xalqimiz tarixi, madaniyati va ma'naviyati, etnografiyasi, ruhiyati, milliyligi hamda o'zligini anglash bilan bog'liq tushunchalar mujassam bo'lgan beqiyos, ulug' manbadir[2.164]. Mana shu e'tiroflar tufayli ismlar turli xil qadimiy e'tiqodlar, diniy-falsafiy fikrlar va milliy xususiyatlarni o'zida mujassam qilgan holda avloddan avlodga o'tib kelmoqda.

O'zbek tilshunosligida temuriylar davri yozma manbalaridagi temuriyzoda antroponimlarining o'zbek tili tarixiy antroponimiyasidagi o'rnini belgilash va ularning leksik, semantik, uslubiy, sotsiolingvistik, lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish o'zbek tilshunosligida dolzarb muammolardan biridir.

Bunday dolzarb muammolarning echimi esa til, tarix, etnografiya fanlari uchun ham nazariy ham amaliy ahamiyatga ega.

Shunday qilib, temuriylar davri antroponimlarining lingvistik jihatdan tadqiq etish temuriylar davridagi turkiy xalqlar tili va tarixini o'rganishda ayniqsa, barkamol avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy va qimmatli manba vazifasini o'taydi.

References:

1. Begmatov E. O'zbek tili antroponimiyasi. Toshkent, 2013 264 b.
2. Begmatov E. O'zbek tili antroponimikasi, kand.diss.–T.:1965, 480 b.

3. Husanov N. O'zbek antroponimlari tarixi. Toshkent, 2014 , 76-82- b
 4. Kenjayeva S. Temuriy malikalar ismi haqida. //Amir Temur va temuriylarning jahon madaniyatidagi tutgan o'рни. Mintaqaviy ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. Toshkent, 2006, 140-142-b.
 5. Sattorov G'. O'zbek ismlarining turkiy qatlami: filolog.fanlari nomzodi ...diss.avtoref. Toshkent, 1990, 16-b.
- Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 1996.– 66 б.